

0‘zbekiston-Qirg‘iziston oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining I xalqaro forumi doirasida bir qator hamkorlik kelishuvlariga erishildi

Ma‘lumki, joriy yilning 3-4-oktyabr kunlari Qirg‘izistonning O‘sh shahridagi Qirg‘iz-O‘zbek universitetida “Oliy ta‘lim tizimida integratsiya, hamkorlik va innovatsiyalar” mavzusidagi O‘zbekiston-Qirg‘iziston oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining I xalqaro forumi tashkil etildi.

Forumda ikki davlat oliygohlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, tajriba almashish, qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Tadbirda ikki mamlakatdan 70 ga yaqin oliy ta‘lim muassasalari rektorlari va boshqa yirik ta‘lim tashkilotlari vakillari qatnashdi. Delegatsiya tarkibida Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti rektori, Jamshid Inoyatxodjayev ham qatnashib, bir qator Qirg‘iz universitetlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish bo‘yicha qator kelishuvlarga erishildi, hamkorlik bo‘yicha anglashuv memorandumlari imzolandi.

Forum doirasida Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti O‘sh texnologiya universiteti, I.Razzoqov nomidagi Qirg‘iz davlat texnika universiteti, Ala-Too xalqaro universiteti, ADAM universiteti bilan keng qamrovli hamkorlik masalalari muhokama qilindi va qator kelishuvlarga erishildi.

Jumladan, O‘sh texnologiya universiteti va Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti o‘rtasida bakalavr bosqichidagi Arxitektura va dizayn yo‘nalishi talabalari uchun qo‘shma “2+2” dasturini tashkil etish bo‘yicha hamkorlik memorandumini

imzolandi.



